



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

№1/2023

Litsenziya raqami: №095310



# **MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI**

*Elektron nashr. 218 sahifa, 30-oktyabr, 2023-yil.*


## **TAHRIR HAY'ATI:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinnbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinnbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbacheyeva Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat yergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

**Muassis:** “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,  
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

“Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O’zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to’g’ri yo’lidir” .....	6
Qirg’zboyev Abdug’affor Karimjonovich	
Ta’lim muassasalarida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni takomillashtirish mexanizmlari .....	8
Ibragimova Gulsanam Ne’matovna	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в ДОО .....	11
Хамдамова Махзуна Турсуновна	
Methodological advancements in the English instruction of preschoolers.....	15
Asiljonova Shohsanam Doniyorovna	
Yangi O’zbekiston maktabgacha ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar .....	18
Babayeva D. R.	
Maktabgacha yoshdagи bolalarni iqtisodiy tarbiyalashda pedagoglar va ota-onalarning o’zaro ta’siri .....	21
Bozorbayeva Gulruh Alisher qizi	
Zamonaviy sharoitlarda maktabgacha ta’lim tizimida metodik ishlarni tashkil etish.....	25
Fayziyeva Mabudaxon Muxammadjonovna	
Nеполные предложения как объект исследования .....	28
Ибатова Амира Шавкатовна, Юлдашева Диляноза Бекмуродовна	
Lider va uning fazilatlari xorijlik olimlar va tadqiqotchilar nigohida .....	32
Irgasheva Madinabonu Baxromjon qizi	
Ijtimoiy tarbiyada mahallaning o’rni.....	36
Raximberganova Munojat Muzaffar qizi, Iskandarov Nodirbek Ravshanbekovich	
Maktabgacha yoshdagи bolalarni ijodiy faoliyatga o’rgatishda STEAM ta’lim texnologiyasining ahamiyati .....	38
Kojageldiyeva Aziza Muxsum qizi	
Kredit-modul tizimida mustaqil ta’limni tashkil etishning sharoit va imkoniyatlari .....	41
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna, Odiljonova Shoxsanam	
Tolerantlikning tarixiy-falsafiy va psixologik ildizlari.....	46
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	
Особенности занятий спортом в подростковом возрасте и их влияние на школьную успеваемость учеников.....	50
Ризаев Азизжон Рахимджанович	
Maktabgacha ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalari .....	54
Marasulova Dono Nigmatullayevna	
Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyanuvchilarini ma’naviy fazilatlarini shakllantirish texnologiyalari.....	59
Matchanov B. O.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda hayot xavfsizligi ko’nikmalarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari.....	63
Muratova Munavar O’rol qizi	
Развитие речи дошкольников как социально-коммуникативный процесс.....	67
Нажмиддинова Гулноза Одиловна	
Bo’lajak tarbiyachilarining mediakompetentligini oshirish mexanizmlari.....	70
Nazarmatova Dilshoda Umarali qizi	
Методика развития речи дошкольников .....	74
Очилова Хилола Шералиевна	
Okul öncesi dönemde bulunan çocukların için anne-babaların çocuk kitapları seçim kriterlerinin incelenmesi.....	78
Elem Göktaş	
Дидактическая игра как средство экологического образования детей дошкольника .....	87
Равшанова Наргиза Норбоевна	
Отешова Гульнур Кабуловна	

Оценка эффективности цифровых технологий по сравнению с традиционными методами управления качеством образования в дошкольных учреждениях.....	91
Хайдаров Р.	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda dizaynerlik qobiliyatini rivojlantirish metodikasi .....	95
Radjapova Zuxra Tirkashevna	
Развитие коммуникативной компетентности среди будущих дошкольных учителей .....	100
Садикова Шоиста, Тохирова Шохсанам	
Maktabgacha ta'limda yuksalish .....	104
Shirbacheyeva Gulchehra Shakirovna, Nuraliyeva Rahbaroy Ravshanbek qizi	
Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyachilarini kasbga yo'naltirib o'qitishda metodik tayyorligini takomillashtirish yuzasidan xalqaro tajribalar .....	106
Sultansaidova Mushtariy Abzalxanovna	
Model of Professional Competencies Preschool Education Teacher .....	109
Tokhirova Shokhsanam	
Maktabgacha katta yoshdagи bolalarda ijtimoiy ongni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari .....	114
Xo'jamatova X. M.	
Zamonaviy o'zbek oilalarda bolalarni milliy ruhda tarbiyalashda qadriyatlarning o'rni .....	119
Yakubova Zilola Zikirovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarga til o'rgatishda o'yinlardan foydalanish.....	122
Mirkasimova Zilola Alisherovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarni kitob o'qishga qiziqtirishda psixologik qo'llab-quvvatlash .....	124
Musratova Zilola Ulugbekovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarning shaxslararo munosabati .....	128
Alimova Gulchehra Qobilovna, Sadikova Durdong Shohasan qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari .....	132
Teshabayeva Zamira Sobirovna	
Maktabgacha yoshdagи bolalarda qadriyatlar shakllanishida xavotirli holatning ahamiyati .....	135
Maxmudova Dilorom Axmadovna	
MTT direktorlarini menejerlik faoliyatiga tayyorlash yo'naliishlari.....	137
Nabiiev Erkin Esanovich, Xushiyeva Gavxar Mamatkarimovna	
Xorijiy tillarning psixologik xususiyatlari.....	140
Atayev Shukur-Ali Ayub-Aliyevich	
Possibilities of Developing Social Competence in Future Educators.....	143
Khalilova Dilnoza Furkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarining innovatsion kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari.....	146
Jumanova Fatima Uralovna	
Talabalarning kasbiy kompetentliligin integrativ yondashuv asosida rivojlantirish texnologiyasi.....	149
Kamalova Gavhar Akbarovna	
Til leksik sistemasining kognitiv aspekti nazariyasi.....	152
Muzaffarova Nodira Mardonovna, Umarova Obida Avazxonovna	
Madaniyatlararo muloqot asosida bo'lajak o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning samaradorligi.....	156
Ne'matova G. A.	
Soha mutaxassislarining ijtimoiy psixologik bilimdonligini oshirish muammolari .....	160
Norboyeva Dilafruz Jumakulovna	
Abdulla Oripov she'riyatida qush nomlari uslubiy vosita sifatida.....	163
Yuldasheva Dilnoza	
Talabaning tadqiqotchilik qobiliyatini rivojlantirishda ilmiy uslubning ahamiyati.....	166
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Raxmatova Saodat Amrakulovna	
Ona bilan munosabatning o'smir tomonidan guruhn'i idrok etilishiga ta'sir xususiyatlari .....	172
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna	

# MUNDARIJA SODERZHANIYE SONTENTS

2023-yil, oktyabr, №1-son



Основные аспекты передачи способностей и генетических характеристик от родителей.....	176
Тургунов Абдурашид Абдуманнобович	
Onalik munosabati autizm sindromli bolalarni ruhiy rivojlanishining omili sifatida.....	182
Asrarhanova E'tibor Abduvaxob qizi, Lutfullayeva Iroda Abduvaxob qizi	
Psixik yetuklik bolaning maktab ta'limga psixologik tayyorligi ko'rsatkichi sifatida .....	186
Jalilova Saboxat Xalilovna	
O'smirlar tasavvurida stressogen ta'sirlarning psixologik tahlili .....	191
Ismoilova Nurjaxon Zuxuriddinovna	
Seminar mashg'ulotlarini samarali tashkil etishning "kouching" shakli .....	196
Mamatkulova Kimyoxon Abdujalilovna	
Shaxs o'zini o'zi faollashtirishi tushunchasining ilmiy mohiyati.....	199
Qurbanboyev Azimbek Nazirboy o'g'i	
Ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda tarbiya texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi.....	202
Muxsiyeva Aziza Shamsiddinovna	
Pedagoglarda frustratsion tolerantlik namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari.....	205
Nurmatov Nurhayot Nurziytot o'g'i	
Kreativ yondashuv asosida talabalarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning	
pedagogik-psixologik xususiyatlari.....	209
Farxodov Fozil Baxrom o'g'li, Adizova Gulzoda Mehridinovna	
Социальнопедагогическая компетентность воспитателя ДОО.....	212
Ширбачеева Г. Ш., Тиллябаева М. Х.	
Inklyuziv ta'limgarayonida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishning o'ziga xos qirralari.....	215
Xusanov Samariddin Maxmadaminovich	

# INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNI KASBGA YO'NALTIRISHNING O'ZIGA XOS QIRRALARI

**Xusanov Samariddin Maxmadaminovich**

Oila va xotin-qizlar ilmiy tadqiqot instituti 1-bosqich doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqola zamonaviy inklyuziv ta'limidagi psixologik jarayonlar va ushbu jarayon ishtirokchilaridagi kasbiy motivatsiya haqida so'z boradi. Bundan tashqari, kasbiy motivatsiyani oshirish ko'nikmlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** motivatsiya, mehnat motivatsiyasi, ehtiyoj, o'ziga ishonch, kelajak, ijtimoiy status.

## SPECIFIC ASPECTS OF PUPIL TO THE PROFESSION IN THE PROCESS OF INCLUSIVE EDUCATION

**Xusanov Samariddin Maxmadaminovich**

Doctoral student of the scientific research institute "Family and Women"

**Abstract:** This article is about the psychological processes in modern inclusive education and the process of professional motivation in the participants of this process. In addition, information is given on the skills of increasing professional motivation.

**Key words:** motivation, work motivation, need, self-confidence, future, social status.

## СПЕЦИФИКА ПРОФОРИЕНТАЦИИ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

**Хусанов Самариддин Махмадаминович**

Докторант научно-исследовательского института «Семья и женщина»

**Аннотация:** Данная статья посвящена психологическим процессам в современном инклюзивном образовании и профессиональной мотивации участников этого процесса. Кроме того, дана информация о навыках повышения профессиональной мотивации.

**Ключевые слова:** мотивация, трудовая мотивация, потребность, уверенность в себе, будущее, социальный статус.

Inklyuziv ta'lim jarayonida qatnashayotgan jismoniy kamchiligi mavjud bo'lgan o'quvchilarni imkoniyatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kasbga yo'naltirish hozirgi davr psixologlari oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Davlatimiz tomonidan inklyuziv ta'limga ko'proq e'tibor berilayotgani sababi "har bir bola bilim olishga, hunarli bo'lishga va jamiyatning teng huquqları a'zosı bo'lishga haqlidir", degan shior asosida Inklyuziv ta'lim ilk qadamlarni tashlashni boshladi.

Inklyuziv ta'limda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy bilimlar ham o'quvchilarga o'rgatilishi lozim. Shu sababli o'quvchilarni dastlabki o'quv yilidan boshlab layoqat, qiziqishlarini hisobga olgan holda ma'lum bir kasb-hunarga yo'naltirish ijobiy natijalarga olib kelishi isbot talab qilmaydigan haqiqatdir. Jismoniy kamchiligi mavjud bo'nga o'quvchilar sog'lom tengqurlari bilan birga biror bir kasbiy faoliyat bilan shug'ullanishlarida o'zlarining yutuq va kamchiliklarini ko'rib turadilar. Buning natijasi o'laroq o'z-o'zligini anglash va "men" ligi haqidagi tasavvuri kengayib boradi.

Ana shu "men"lik ta'sirida mehnat motivatsiyasi yuzaga kelib o'z faoliyatini ongli yo'naltirib, o'z faoliyatini natijasidan mamnun bo'lib, ruhiy jihatdan o'zini jamiyatning bir bo'lagi sifatida aks ettridi.

Buning uchun inklyuziv ta'limda faoliyat yuritayotgan o'qituvchi va yetakchilar o'quvchilarning yutuqlarini o'z vaqtida aniqlab rag'batlantirib borishni yaxshi o'zlashtirgan bo'lishlari lozim. Chunki ayni kasb tanlash yosh-dagi nogironligi mavjud o'quvchilarning o'qishga, hayotga bo'lgan motivatsiyasi aynan ushbu vaqtda hal qiluvchi pallada bo'ladi. Biz quyida o'qituvchi va murabbiylarga ayrim tavsiyalarni berib o'tmoqchimiz:

- avvalo jismoniy kamchiligi mavjud tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishini qay darajada ekanligini aniqlash. Bu orqali tarbiyalanuvchi bilan qanday ishslash kerakligi jamoa tomonidan aniqlab



olinadi va yosh hamda nuqson xususiyatiga qarab keyingi ishlar rejasini tuzib oladilar. Yosh davrlar xususiyati ham bu ta'limga shaklida boshqa ta'limga shakllaridan kam bo'limgan darajada muhim xususiyatga egadir. Kichik maktab yoshidagi imkoniyati cheklangan bolalardagi o'z imkoniyatlaridan qoniqish hissi o'smirlig yoshidagi imkoniyati cheklangan o'quvchilarning o'z imkoniyatlaridan qoniqish hissi kabi yuqori bo'lmaydi. Yani hali ularda uyut va "men"lik hissi yuqori darajada bo'lmaydi.

Bundan tashqari olingen natijalar bo'yicha har bir bolaga individual va uning tengdoshlariga mos jamoaviy dastur ishlab chiqiladi. Bu o'rinda dastur nafaqat jismoniy kamchilgi mavjud o'quvchilarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda balki ular bilan birga tahsil olayotgan sog'lom bolalarning imkoniyatlarini inobatga olgan holda tayyorlanishi kerak bo'ladi. Shuning uchun ham inklyuziv ta'limga nihoyatda mas'uliyatlari va kuchli sabr va bilim talab qilinadigan ta'limga shaklidir.

- imkoniyati cheklangan va ular bilan o'qiyotgan sog'lom bolalarning ota-onalari bilan doimiy alaqada bo'lish va ularga farzandlarida bo'layotgan muntazam o'zgarishlari haqida ma'lumotlar berib borish tizimini yo'liga qo'yish kerak.
- bundan tashqari, o'qituvchi va tarbiyachilar tajribali psixologlar bilan ham doimiy ishlashlari kerak bo'ladi. Turli xil imkoniyatlari o'quvchilarning bir guruvida ta'limga olishi ularda har xil psixologik buzilishlarni keltirib chiqarishi tabiiy jarayondir. Ularni o'zaro moslashuvi, bir-birini tushinishini yengillashtirish maqsadida psixologlarning o'rni nihoyatda sezilarlidir.

Inklyuziv ta'limga yana bir o'ziga xos jihatlaridan biri unda ta'limga olayotgan o'quvchilarning kasbga yo'naltirish masalasi ham odatdagidan sezilaricha farq qiladi. Shuning uchun ham bu masalaga alohida e'tibor bilan qarash kerak. Inklyuziv ta'limga jarayonida qatnashayotgan jismoniy kamchiligi mavjud bo'lgan o'quvchilarni imkoniyatlari nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda kasbga yo'naltirishda ularning xohish-istaklari bilan birgalikda, ularning imkoniyatlarini ham albatta hisobga olish kerak bo'ladi. Ayrim imkoniyati cheklangan o'quvchilarning o'z darajalarini to'g'ri baholay olmasdan sog'ligiga va ruhiyatiga salbiy ta'sir qiladigan yoki imkoniyati yetmaydigan kasblarni tanlashlari bilan bog'iqliq holatlar ham ko'plab uchrab turadi. Bunday hollarda o'qituvchilar imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir qilmaydigan holda to'g'ri yo'lni ko'rsatishi lozim bo'ladi. Yana ayrim inklyuziv ta'limga o'qiyotgan o'quvchilar o'z imkoniyatlariga juda past baho berishi natijasida o'zlarining imkoniyatlari yetadigan to'g'ri kasblarni tanlay olmasliklari yoki umuman mehnat motivatsiyasining so'nish holatlari ham ko'p uchraydigan hodisadir. Bunday hollarda imkoniyati cheklangan o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan bahosini ko'taruvchi suhbatlar, treninglar va boshqa texnikalar orqali munosib kasbni tanlashlariga ko'mak berishlari kerak bo'ladi. Kasb tanlashdagi turli xildagi stereotiplarga berilish ham imkoniyati cheklangan o'quvchilarni muammoli tomonlaridan biridir.

Ustoz va murabbiylarga bunday vaziyatda ularga munosib motivatsiya va to'g'ri yo'lni ko'rsatishlari uchun katta mas'uliyat yuklanadi. O'quvchilarga kasblarning o'ziga xos jihatlari, qiyinchiliklari, afzalliliklari, inson hayotida tutgan o'rnnini to'laligicha tushuntirishlari hamda sog'lom o'quvchilardan olinadigan kasb tanlash so'rovnomalari, qiziqishlarni aniqlaydigan metodikalarni ulardan ham olishlari va olingen natijalar tahlilini imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshirishlari kerak bo'ladi. So'rovnomalardan va metodikalardan chiqqan natijalar asosida o'quvchilarga mos kasb-hunarni tavsiyasini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

#### Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

- 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limga rivojlantirish Konsepsiysi. PQ-4860-son.13.10.2020-y.
- Shomaxmudova R.Sh. Maxsus va inklyuziv ta'limga. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent, 2011-yil.
- Qodirova F., Pulatova D. Inklyuziv ta'limga kadrlar masalasi. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar ilmiy tadqiqotlar jurnali. 14-son-2022.



**Muharrir:** Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

## 2023. № 1

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'lumi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reyestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.  
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**